

QALANDAROV UY-MUZEYI FAOLIYATI



M.S. Muhamedova

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrası professori
tarix fanlari doktori, professor

Yalgʻasheva Mukarram

Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy
obyektlarni konservatsiya qilish,
taʼmirlash va saqlash yoʻnalishi
2-kurs magistranti

Yalgashevamukarram04@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785319>

Annotatsiya. Qalandarov uy-muzeyi bugungi kunda davlat tomonidan muhofaza qilinadigan meʼmoriy yodgorlik hisoblanadi. 1910–1916-yillarda qurilgan Kalantarov uyi avstriyalik meʼmor Otto Nelle loyihasi asosida barpo etilgan boʻlib, unda Yevropa eklektik uslubi bilan mahalliy meʼmorchilik anʼanalari uygʻunlashgan. U nafaqat tarixiy eksponatlar saqlanadigan joy, balki maʼrifiy va ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladigan maskandir. Maʼrifiy faoliyat muzey ishining muhim yoʻnalishidir. Muzeyda ekskursiyalar, mavzuli tadbirlar va taʼlimiy dasturlar tashkil etilib, yosh avlodda milliy merosga hurmat tuygʻusini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur uy-muzey Samarqandning boy tarixiy va madaniy merosini oʻzida mujassam etgan muhim obida boʻlib, oʻtmish va bugunni bogʻlab turuvchi madaniy koʻprik vazifasini bajaradi.

Kalit soʻzlar: vaqtinchalik koʻrgazma, eklektik arxitektura, etnografik materiallar, maʼrifiy dasturlar, tarixiy-madaniy meros.

Аннотация. Дом-музей Каландарова в настоящее время является архитектурным памятником, охраняемым государством. Дом Калонтарова, построенный в 1910–1916 годах по проекту австрийского архитектора Отто Нелле, сочетает в себе европейский эклектический стиль и традиции местной архитектуры. Он является не только местом хранения исторических экспонатов, но и центром проведения просветительской и научно-исследовательской деятельности. Просветительская работа является одним из важнейших направлений музейной деятельности.

В музее организуются экскурсии, тематические мероприятия и образовательные программы, направленные на формирование у молодого поколения уважения к национальному наследию. Данный дом-музей является значимым памятником, воплощающим богатое историко-культурное наследие Самарканда, и выполняет роль культурного моста, соединяющего прошлое и настоящее.

Ключевые слова: временная выставка, эклектическая архитектура, этнографические материалы, просветительские программы, историко-культурное наследие.

Annotation. The Kalantarov House Museum is currently recognized as an architectural monument protected by the state. Built between 1910 and 1916 according to the design of the Austrian architect Otto Nelle, the Kalantarov house combines European eclectic style with local architectural traditions. It serves not only as a place where historical exhibits are preserved, but also as a center for educational and scientific research activities. Educational work is one of the key directions of the museum's activity.

The museum organizes excursions, thematic events, and educational programs aimed at fostering respect for national heritage among the younger generation. This house museum is an important monument embodying the rich historical and cultural heritage of Samarkand and serves as a cultural bridge connecting the past and the present.

Keywords: temporary exhibition, eclectic architecture, ethnographic materials, educational programs, historical and cultural heritage.

Qalandarov (Kalantarov) uy-muzeyi Samarqand shahrining tarixiy qismida joylashgan bo'lib, XX asr boshlarida eklektika uslubida qurilgan muhim me'moriy obidalardan biridir. Ushbu bino dastlab boy savdogar Abram Kalantarovning shaxsiy turar joyi sifatida barpo etilgan. Qalandarov uy-muzeyi nafaqat tarixiy obida, balki faol ma'naviy-ma'rifiy markaz sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Bu yerda olib borilayotgan ma'rifiy ishlar yosh avlodni milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, tarixiy ong va xotirani mustahkamlash, shuningdek keng jamoatchilikni Samarqandning boy o'tmishi bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan.

1920-yillarda Abram Kalontarov o'zining barcha mol-mulkini ixtiyoriy ravishda davlat hisobiga topshirgan va o'zi ijarada yashay boshlagan. Sho'rolar hukumati esa Kalontarov va uning oilasiga himoya yorlig'i bergan. 1930-yilda Abram Kalontarov va uning o'g'li Mixail hibsga olinib, Toshkentga olib ketilgan. Biroq Kalontarovning tanishlari Davlat siyosiy boshqarmasi xodimlariga himoya yorlig'ini ko'rsatish orqali Abram va Mixail Kalontarovlarni qamoqdan ozod qildirishga muvaffaq bo'lishgan.

Abram Kalontarovning turli shaharlarda bir nechta uylari bo'lgan. U Samarqandda 1910–1916-yillarda qurdirgan uy bugungi kunda davlat muhofazasidagi muzey hisoblanadi. Mazkur uy avstriyalik me'mor Otto Nelle loyihasi asosida, germaniyalik hamda samarqandlik ustalar ishtirokida qurilgan. U Rossiya imperatori Nikolay II ning Samarqandga tashrifi munosabati bilan barpo etilgan bo'lib, imperator kelgan taqdirda uni shu uyda mehmon qilish rejalashtirilgan edi. Biroq Birinchi jahon urushi va mamlakat ichidagi inqilobiy voqealar sababli imperatorning O'rta Osiyoga tashrifi bekor qilingan[6]. 1925–1930-yillarda Samarqand shahri O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan davrda mazkur uy davlat idoralari tasarrufiga o'tgan. Keyinchalik bino Madaniyat uyiga aylantirilgan. 1934-yildan boshlab u tarix va madaniyat muzeyi sifatida foydalanilgan, 1981-yildan hozirgi kungacha esa Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

1981-yilda u mintaqaviy o'lkashunoslik muzeyi va boy tarixiy ko'rgazmaga aylandi. Binoning ichki bezagi Yevropa va Markaziy Osiyo uslublarini birlashtiradi.

Mehmonxonalarning devorlari nafis ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan, o'ymakor yog'och shift rang-barang naqshlar bilan bezatilgan va ganch klaustralari vitrajlar bilan uyg'unlashib, Samarqanddagi Buxoro yahudiylari jamoasining taniqli yetakchilaridan biri bo'lgan

uy egasining eklektik didini aks ettiradi. Samarqandning an'anaviy yahudiylar mahallasi Registon maydonining sharqidagi eski shaharda, qadimgi Chokardiz qabristoni va Imom al-Maturidiy yodgorlik majmuasi yonida joylashgan. Hozirgacha u yerda ba'zi alohida yahudiy uylari va jamoat hammomi, shuningdek, "Gumbaz" ibodatxonasi saqlanib qolgan, Abramov uyi esa ta'mirlanib, xususiy mehmonxonaga aylantirilmoqda. Tarix, madaniyat va san'at muzeyida 1920-30-yillarda to'plangan yahudiylarning katta kolleksiyasi saqlanadi. Unda 2000 ga yaqin buyum, jumladan, ibroniy tilidagi qo'lyozmalar va bosma kitoblar mavjud.

Samarqandning manzarali burchaklaridan birida, XX asr boshlaridagi eklektika uslubida, me'mor E.O. Nelle loyihasi asosida qurilgan boy savdogar Abram Kalantarovning eski hovlisida 1981-yilda viloyat o'lkashunoslik muzeyining ochilishi bo'lib o'tdi. Muzey binosi me'moriy yodgorlik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. XX asr boshlariga oid xususiy turar joy Samarqandning ruslar tomonidan bosib olinishidan keyin barpo etilgan yangi shaharning o'ziga xos me'moriy yodgorligi bo'lib, u me'mor E.Nelle tomonidan birinchi gildiya savdogari Abram Kalantarov uchun loyihalashtirilgan[3].

Keyinchalik bino madaniy maskanga aylantirilib, muzey sifatida faoliyat yurita boshlagan. Bino me'mor E.O. Nelle loyihasi asosida qurilgan bo'lib, o'z davrining hashamatli uy-joy me'morchiligini aks ettiradi. Unda Yevropa me'morchilik elementlari bilan bir qatorda mahalliy milliy bezak uslublari ham uyg'unlashgan. Yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan eshik va derazalar, baland shiftlar, keng va yorug' xonalar binoga o'ziga xos ko'rinish beradi. Xonalar bir-biriga ketma-ket tutashgan holda joylashgan. 1981-yilda ushbu binoda viloyat o'lkashunoslik muzeyi ochilgan. Shundan so'ng uy nafaqat tarixiy obida, balki ilmiy va madaniy markazga aylangan. Muzey ekspozitsiyasi mamlakatimiz hududining qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixini yoritadi.

Qalandarov uy-muzeyining ichki ko'rinishi Samarqandning XX asr boshlaridagi boy savdogar uylari muhitini yaqqol aks ettiradi. Bino ichkarisiga kirgan zahoti keng va baland shiftli zallar e'tiborni tortadi. Shiftlar hamda devor qismlari nafis bezaklar va an'anaviy naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, ular uy egalarining didi va mavqeini ko'rsatadi. Interyerda Yevropa uslubi elementlari bilan bir qatorda mahalliy milliy bezak an'analari uyg'unlashgan. Xonalar bir-biriga ketma-ket joylashgan bo'lib, anfilada uslubini hosil qiladi. Bu tartib tashrif buyuruvchilarga har bir bo'limni izchil ravishda tomosha qilish imkonini beradi. Yog'och o'ymakorligi bilan ishlangan eshik va deraza romlari, bezatilgan ustunlar hamda ichki pardoziy detallariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, yog'och naqshlar va bezak elementlari binoga o'ziga xos nafislik baxsh etadi.

Keng derazalar orqali tabiiy yorug'lik zallarga mo'l kirib, ichki makonni yanada yorqin va jozibador qiladi. Bu yorug'lik eksponatlarni tabiiy ko'rinishda namoyish etishga xizmat qiladi. Ichki muhit tarixiy buyumlar bilan uyg'unlashgan bo'lib, qadimiy sopol idishlar, tangalar, arxeologik topilmalar va boshqa eksponatlar joylashuvi o'tmish davr ruhini yaratadi. Uy muzey ichki ko'rinishi nafaqat me'moriy yodgorlik sifatida, balki madaniy muhitni saqlab qolgan maskan sifatida ham muhimdir. Bu yerda tashrif buyuruvchilar nafaqat tarixiy eksponatlarni ko'radi, balki o'sha davrning yashash sharoiti, estetik qarashlari va shahar madaniyatini his qilish imkoniyatiga ega bo'ladi[1].

Abram Kalantarov uy muzeyi Samarqand shahrining tarixiy hududida joylashgan bo'lib, XX asr boshlariga oid noyob me'moriy obidalaridan biridir. Uning tashqi ko'rinishi o'sha davr arxitekturasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Bino eklektika uslubida qurilgan bo'lib, unda Yevropa me'morchiligi elementlari bilan bir qatorda mahalliy an'anaviy bezak unsurlari ham uyg'unlashgan. Uy-muzeyning fasadi muvozanatli va salobatli ko'rinishga ega. Tashqi devorlar sodda, ammo nafis bezak elementlari bilan boyitilgan. Derazalar katta va baland qilib ishlangan

bo‘lib, ularning atrofi bezakli ramkalar bilan ajratilgan. Bu esa binoga yorug‘ va jozibali ko‘rinish beradi. Asosiy kirish qismi alohida ajralib turadi, eshik atrofi bezakli shakllar bilan ishlangan bo‘lib, mehmonlarni tantanavor tarzda kutib oladi. Binoning tashqi qismida baland shiftli tuzilma va mustahkam devorlar ko‘zga tashlanadi. Me‘moriy nisbatlarning to‘g‘ri saqlangani unga jiddiy va hashamatli ko‘rinish beradi. Ayrim joylarda dekorativ ustunlar va bezak chiziqlari qo‘llanilgan bo‘lib, ular umumiy kompozitsiyani yanada boyitadi.

Uy-muzey atrofi kichik hovli bilan o‘ralgan. Ushbu hovli binoning tarixiy muhitini yanada to‘ldiradi va tashqi ko‘rinishning yaxlit ansamblini hosil qiladi. Daraxtlar va ochiq maydon binoga tabiiy go‘zallik baxsh etadi. Umuman olganda, Qalandarov uy-muzeyining tashqi ko‘rinishi Samarqandning XX asr boshlaridagi shahar me‘morchiligi, savdogar uylarining hashamati va estetik didini aks ettiradi. U nafaqat tarixiy obida, balki shahar madaniy merosining muhim qismi sifatida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

Abram Kalantarov uy muzeyi bugungi kunda Samarqand shahrining muhim madaniy maskanlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Bino davlat tomonidan muhofaza qilinadigan me‘moriy yodgorlik hisoblanadi va uning tarixiy qiyofasini saqlab qolish maqsadida muntazam ravishda ta‘mirlash hamda konservatsiya ishlari amalga oshiriladi. Shu bilan birga, muzey ichki qismi zamonaviy ekspozitsiya talablari asosida jihozlangan bo‘lib, tashrif buyuruvchilar uchun qulay sharoit yaratilgan. Hozirgi vaqtda muzeyda Samarqand va viloyat tarixiga oid arxeologik topilmalar, qadimgi maishiy buyumlar, hunarmandchilik namunalari, tarixiy hujjatlar hamda fotosuratlar namoyish etilmoqda. Ekspozitsiyalar davriy ravishda yangilanib boriladi va yangi ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan boyitiladi. Xonalar mavzular asosida tartiblangan bo‘lib, tashrif buyuruvchilar qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarni izchil ravishda kuzatish imkoniga ega[4].

Bugungi kunda uy-muzey nafaqat eksponatlar namoyish etiladigan joy, balki faol madaniy-ma‘rifiy markaz hamdir. Bu yerda maktab o‘quvchilari va talabalar uchun ekskursiyalar, tarixiy-ma‘rifiy uchrashuvlar, mavzuli ko‘rgazmalar va turli madaniy tadbirlar o‘tkaziladi. Muzey yosh avlodni milliy meros ruhida tarbiyalash, tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash va keng jamoatchilikka yetkazishda muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, Qalandarov uy-muzeyi mahalliy va xorijiy sayyohlar orasida ham katta qiziqish uyg‘otadi[3]. Uning tarixiy arxitekturasini va boy ekspozitsiyasini Samarqandning sayyohlik yo‘nalishlarida munosib o‘rin egallagan. Bugungi holatda muzey o‘tmish ruhini saqlagan holda zamonaviy madaniy maskan sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Abram Kalantarov uy muzeyi bugungi kunda Samarqand shahrining muhim madaniy maskanlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Bino davlat muhofazasiga olingan me‘moriy yodgorlik bo‘lib, uning tarixiy qiyofasini saqlab qolish maqsadida muntazam ravishda restavratsiya va konservatsiya ishlari olib borilgan. Fasadi, tom qismi va yog‘och o‘ymakorlik elementlari mustahkamlanib, asl ko‘rinishi tiklangan. Shu bilan birga, ichki qismi zamonaviy muzey talablari asosida jihozlanib, yoritish va xavfsizlik tizimlari yangilangan.

Hozirda muzeyda doimiy ekspozitsiyalar faoliyat ko‘rsatib, ular Samarqand va viloyat hududining qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan tarixini yoritadi. Ekspozitsiyalar ilmiy asosda joylashtirilgan bo‘lib, tushuntiruvchi matnlar va ko‘rgazma materiallari bilan boyitilgan. Shuningdek, muzeyda davriy ravishda mavzuli va vaqtinchalik ko‘rgazmalar tashkil etilib, ular arxeologiya, etnografiya, hunarmandchilik va tarixiy sanalarga bag‘ishlanadi. Muzey fondi yangi topilmalar va ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan boyitib borilmoqda. Uy muzey bugungi kunda nafaqat eksponatlar namoyish etiladigan joy, balki faol madaniy-ma‘rifiy markaz hamdir. Bu yerda maktab o‘quvchilari va talabalar uchun o‘quv-ekskursiyalar, ilmiy-amaliy mashg‘ulotlar hamda turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkaziladi. Professional gidlar tashrif buyuruvchilarga

tarixiy davrlar haqida batafsil ma'lumot berib, binoning o'ziga xos me'moriy xususiyatlarini tushuntirib boradi. Shuningdek, Qalandarov uy-muzeyi Samarqandning sayyohlik yo'nalishlariga kiritilgan bo'lib, mahalliy va xorijiy sayyohlar orasida katta qiziqish uyg'otadi. Uning tarixiy arxitekturasini va boy ekspozitsiyasi shahar madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi holatda muzey o'tmish ruhini saqlagan holda zamonaviy madaniy maskan sifatida faoliyatini davom ettirmoqda hamda tarixiy merosni kelajak avlodlarga yetkazish vazifasini muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda[2].

Muzeyda muntazam ravishda maktab o'quvchilari, akademik litsey va kollej talabalari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ekskursiyalar tashkil etiladi[6]. Ekskursiyalar davomida tashrif buyuruvchilarga nafaqat eksponatlar haqida ma'lumot beriladi, balki Kalontarovlar sulolasi tarixi, XX asr boshlaridagi savdogarlik faoliyati, Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ham keng yoritib beriladi. Professional gidlar tarixiy voqealarni sodda va tushunarli tarzda bayon qilib, yoshlarning mavzuga qiziqishini oshiradi.

Uy-muzeyda turli mavzularga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar ham o'tkazib kelinadi. Tarixiy sanalar, milliy qadriyatlar, hunarmandchilik an'analari hamda madaniy merosni asrash masalalariga bag'ishlangan tadbirlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ba'zi hollarda tarixchi olimlar, tadqiqotchilar va o'lkashunoslar ishtirokida ochiq muloqotlar tashkil etilib, muzey ilmiy muhit markaziga aylanadi. Muzey fondidagi boy materiallar asosida vaqtinchalik va ko'chma ko'rgazmalar ham tashkil etiladi. Ushbu ko'rgazmalarda arxeologik topilmalar, qadimiy tangalar, maishiy buyumlar, etnografik materiallar hamda hunarmandchilik namunalari namoyish etiladi. Ko'rgazmalar doimiy ravishda yangilanib borilishi tashrif buyuruvchilarning qiziqishini oshiradi va muzey hayotini jonlantirib turadi. Bundan tashqari, muzey xodimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi. Hudud tarixi, madaniy meros obyektlari va arxiv materiallari o'rganilib, natijalar ma'ruzalar, risolalar va ilmiy chiqishlar orqali jamoatchilikka yetkaziladi. Bu esa muzeyning nafaqat namoyish, balki ilmiy markaz sifatidagi ahamiyatini ham oshiradi[4].

Mahalliy va xorijiy sayyohlar bilan ishlash ham ma'rifiy faoliyatning muhim qismi hisoblanadi. Tashrif buyuruvchilarga binoning me'moriy xususiyatlari, qurilish tarixi, ichki bezaklari hamda Kalontarovlar hayoti haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shu orqali muzey Samarqandning madaniy turizm salohiyatini oshirishga hissa qo'shmoqda. Umuman olganda, Qalandarov uy-muzeyida olib borilayotgan ma'rifiy ishlar tarixiy merosni saqlash, uni keng jamoatchilikka yetkazish va yosh avlod qalbida o'z tarixiga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Muzey bugungi kunda o'tmish va bugunni bog'lab turuvchi ma'naviy ko'priklar vazifasini bajarib, Samarqandning faol madaniy-ma'rifiy markazlaridan biri sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Muzey faoliyati ko'p qirrali bo'lib, unda doimiy va vaqtinchalik ekspozitsiyalar tashkil etiladi. Ekspozitsiyalar Samarqand va viloyat hududining qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixini yoritadi. Arxeologik topilmalar, etnografik buyumlar, qadimiy tangalar, maishiy anjomlar va tarixiy hujjatlar tashrif buyuruvchilarga hududning boy madaniy merosini anglash imkonini beradi. Shuningdek, muzey fondi yangi ilmiy tadqiqotlar va topilmalar bilan muntazam boyitib boriladi[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Inqilobdan oldingi Samarqand bo'ylab sayr" Farzona Hamidova <https://sp.gazeta.uz/page71630079.html>
2. Дом Абрама Исааковича Калонтарова, the Bezalel narkiss index of Jewish and material culture <https://cja.huji.ac.il/browser.php?mode=set&id=11778>

3. Public access to museums. Provide public access to museums, exhibition spaces or galleries, or works of art and artefacts <https://samdaqi.edu.uz/muzeylarga-jamoatchilik-kirishi>
4. Бадалов, Иосиф (6–12-май 2011-йil). "[Его имя бессмертно. К 60-летию со дня смерти Абрама Калонтарова](#)". 9.10.2023
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abram_Kalontarov
6. Samarkand regional museum of local lore Samarkand state museum-reserve <https://samarkandmuseum.uz/>